

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Baxranov Sherzod

O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI	10-16
---	-------

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI	17-21
--	-------

Sattarova Marhabo Mamatovna

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA'SIRI	22-30
--	-------

Raxmatov Mirjon

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN	31-38
---	-------

To'xtasinov Mira'zam

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI	39-42
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	43-48
---	-------

Azgarov Abdumutalib

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO'LLANILISHI HOLATI TAHLILI	49-56
---	-------

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE	57-60
--	-------

Otabekov Javdod

GO'SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI	61-68
--	-------

Navruzov Dilshod Ismatullayevich

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH	69-74
--	-------

Uralov Temur Boxodir o'g'li

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI Hujjatlashtirish VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	75-81
--	-------

Samandarov Og'abek

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI	82-86
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yuldashev Rustam Daniyrovich

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT
RIVOJLANISHIDAGI O'RNI 87-93

Adilov Zafar Yunusovich

ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L 94-98

Berdikulova Surayyo Aslamovna

IJTIMOIIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI 99-104

Taniqulov Jonibek Ashirkulovich

ZAMONAVIIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI 105-113

Yarbaev Xasan Xazratqulovich

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH:
MILLIIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL 114-118

Maxsudjonov Kamronjon

MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIIY MADANIYATIGA
TA'SIRINING IJTIMOIIY-FALSAFIY AHAMIYATI 119-123

Qo'chqarov Oybek G'ulomovich

INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:
IJTIMOIIY-FALSAFIY YONDASHUV 124-128

Otaqulov Elyor Madiyrovich

EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI 129-136

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich

TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR 137-141

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Niyazov Ravshan Turakulovich

SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR
XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI 142-148

Yunusova Xilola Ravshan qizi

KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI
"V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA 149-154

Absalamova Gulmira Sharifovna

LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIIY TERMINLARNING
NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA 155-158

Dadajanova Aziza Karimullayevna

THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:
A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE 159-170

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna

YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI
RAMZIIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA)
ERTAGI MISOLIDA 171-175

Babajanova Iqbol Salomaddinovna

SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 176-180

<i>To'xtayeva Sarvinoz</i> DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI	181-184
<i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI	185-189
<i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i> CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY	190-195

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>O'rinboyev Rustamjon</i> A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA	196-206
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI	207-212
<i>G'ofurova Dilafruz</i> AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR	213-218
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI	219-223
<i>Juraeva Asal</i> OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	224-228
<i>Ходжаева Шурин</i> ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ	229-239
<i>Imomniyozov Doniyorbek</i> SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR	240-250
<i>Asadov Shahriddin Faxriddinovich</i> XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN	251-254
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА	255-262
<i>Anarbayev Eldor</i> KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	263-269
<i>Ibrohimov Azimjon</i> KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK	270-278

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI	279-285
--	---------

<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i> OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i> FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN	303-309
<i>Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi</i> INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	310-314
<i>Hamidov Sherhali Shirinovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i> TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i> "NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT"	337-341

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF THE ALL-UNION SCIENTIFIC RESEARCH INSTITUTE OF COTTON PRODUCTION IN SOLVING PROBLEMS OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT IN THE UZBEK SSR

Bakhranov Sherzad Tashtursunovich,
University of public safety of the Republic of Uzbekistan
Doctor of Philosophy (PhD) in History

Abstract. The Soviet government created research institutes and organizations to study the problems that arose during research in the field of agriculture, since solving these problems contributed to the development of agriculture in the Uzbek SSR. The article provides facts and evidence that the recommendations of research institutes were implemented in fragments, and were often ignored by the local administration. There were facts of deception, formalism and bureaucracy on the part of the regional administration, all of which, in turn, strongly influenced the effectiveness of measures taken to address issues of improving agriculture in the field. The article proves that the institutes were created only for the development of the region and the protection of the interests of the center, provides the facts that all the institutions that were created on the instructions of the center interacted with each other in solving issues related to the development of agricultural crops, and the research results were under the strict control of the Soviet government.

Keywords: research institute, station, sowing operations, fiber varieties, research, center, staff, cotton, breeding, sowing, laboratory, raw materials.

O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI

Baxranov Sherzod Tashtursunovich,
O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
E-mail: Sherofkun82@mail.ru

Annotatsiya. Sovet hukumati qishloq xo'jaligi sohasidagi muammolarni o'rganish uchun ilmiy tadqiqot institutlari va tashkilotlarini yaratdi, chunki bu muammolarni hal qilish O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yordam berdi. Maqolada ilmiy-tadqiqot institutlarining tavsiyalari parcha-parcha bo'lib bajarilganligi va ko'pincha mahalliy ma'muriyat tomonidan e'tiborsiz qoldirilganligi to'g'risida dalillar keltirilgan. Joylarda ma'muriyat tomonidan aldash, rasmiyatchilik va byurokratiya faktlari mavjud edi, ularning barchasi, o'z navbatida, qishloq xo'jaligini sohasini yaxshilash masalalarini hal qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Maqolada institutlar faqat markaz rivojlantirish va markaz manfaatlarini himoya qilish uchun yaratilganligi isbotlangan, markazning topshirig'iga binoan tashkil etilgan barcha muassasalar qishloq xo'jaligi ekinlarini rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lganligi va tadqiqot natijalari Sovet hukumatining qattiq nazorati ostida edi.

Kalit so'zlar: ilmiy-tadqiqot instituti, stansiya, urug'chilik ishlari, tolali navlar, tadqiqot, markaz, xodimlar, paxta, seleksiya, urug'chilik, laboratoriya, ariqlar, xom ashyo.

Kirish.

O'rta Osiyo o'lkasining paxtasiga bo'lgan qiziqish Rossiya imperiyasi, keyinchalik Sovet hokimiyati tomonidan bu yerda paxta navlarini o'rganish, iqlimni o'rganish, yangi navlarni ixtiro qilish ishlarini tezlashtirib yubordi. 1929-yil Toshkentda Lenin ordenli Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti (SoyuzNIXI) O'rta Osiyoda paxtachilik masalalari bilan shug'ullanadigan barcha ilmiy tashkilotlarni birlashtirgan Butunittifoq paxtachilik ilmiy – tadqiqot instituti tashkil etildi.

Muhokama.

Sovet hukumatining 1934-yil 29-avgustdagi "Paxtachilikda urug'chilik ishlarini yaxshilash chora-tadbirlari haqida"gi farmoyishidan kelib chiqib, institutda 1937-yilga qadar Amerika, Misr, mahalliy paxta navlari, ingichka va o'rta tolali navlar tadqiq etildi. Bu ishlarda markaz xodimlaridan S.S.Kanash, P.V.Mogilnikov, G.S.Zaysev, Ya.D.Nagibin, R.R.Shrederlar faol bo'ldilar. Paxta navlarini o'rganadigan maydonlar ham ajratilib, 1937-yilga kelganda Markaziy seleksiya stansiyasining tajriba maydonlari 1 mln.ga ga etdi[1; b.13]. Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti tarkibida bo'lgan Markaziy seleksiya stansiyasining o'zi ham 1929-1931-yillarda SSSR mustaqil paxtachiligini shakllantirish maqsadida seleksiya – urug'chilik ishlarini qayta ko'rib chiqish bilan shug'ullandi[2; b.9]. Bug'doy ekinlarini o'rganish bilan 1938-yilgacha shug'ullandi.

Shuningdek o'lkada qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini ham rivojlantirishga e'tibor qaratildi. 1924-yilda paxtachilikni mexanizatsiyalashni rivojlantirish masalasida V.Lenin dekret imzoladi. Qishloq xo'jaligida mashinasozlikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston SSRda mashina – tajriba stansiyalari ochildi.

1931-1932-yillarda Butunittifoq qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash institutining O'rta Osiyo paxtachilik bo'limi qoshida O'rta Osiyoda paxtachilikni mexanizatsiya va elektrifikatsiyalash stansiyasi ochildi. Keyinchalik stansiya Butunittifoq paxtachilik ilmiy – tadqiqot instituti (SoyuzNIXI) tarkibiga o'tkazildi va paxtachilik agroteknikasi va mexanizatsiyasi Markaziy stansiyasi deb atala boshladi[3; b.3]. Qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini ham rivojlantirishga e'tibor qaratildi.

Masalan, 1911-yilda entomolog olim V.I. Plotnikov Toshkentda Turkiston entomologik stansiya ochdi. Stansiyaning bog'dorchilikda chigirtka, qurt-qumursqa, kemiruvchilarga qarshi kurash olib borish ishlarini olib bordi. 1925-yilda Turkiston entomologik stansiya O'zbek o'simliklarni himoya qilish markazi (UzSTAZRA) ochildi. Markaz tarkibiga Buxorodagi Shirabudin, Xiva bo'limlari hamda Ozarbayjon SSR, Turkmaniston SSRdagi markazlar kiritildi. 1912-yilda Samarqandning Kattaqo'rg'on shahrida Milyutin davlat seleksiya stansiyasi tashkil etildi[4; b.76]. Stansiya bug'doy navlarini yaxshilash va respublikaning yomg'irli yerlarida ekiladigan qishloq xo'jalik ekinlarini o'rganish bilan shug'ullandi[5; b.77]. O'zbek guruch tajriba stansiyasi 1932-yilda tashkil etildi. Stansiyaning vazifasi yangi guruch navlarini yaratish, uning chidamliligini o'rganishdan iborat bo'ldi. Natijada guruchning 15 ta yangi navlari yaratildi, ularning 8 tasi O'zbekiston SSRdan tashqari Tojikiston SSR, Turkmaniston SSR, Qozog'iston SSR, Ozarbayjon SSR, Ukraina SSRda ham ekila boshladi[6; b.78].

O'zbek guruch tajriba stansiyasi 1957-yilda O'zbekiston SSRdagi yangi guruch navlarining 8 foizi O'zbek guruch tajriba stansiyasi tomonidan taqdim etildi. Stansiya tomonidan makkajo'xori navlari ham o'rganildi[7; b.78].

1929-yilda UzSTAZRada N.Z.Zaprometov boshchiligida paxta kasalligi va zararkunandalarga qarshi kurash maxsus bo'limi ochildi. 1931-yilda stansiya SoyuzNIXI tarkibiga kiritilib, SoyuzNIXI o'simliklarni himoya qilish markaziy stansiyasi (STAZRA SoyuzNIXI) deb ataldi[8; b.8]. O'zbek sabzavot-kartoshka tajriba stansiyasi 1933-yilda tashkil etilgan bo'lib, u mexanizatsiya ishlarini amalga oshirish bilan kartoshkaning keng ishlatishga erishish, sabzavot-poliz mahsulotlarini yetishtirishda agrotexnik ishlarining ilmiy-texnik jihatlarini tahlil qilish, respublika iqlimi, hududini o'rgangan holda sabzavot-kartoshka mahsulotlarini yangi navlarini yaratish kabi vazifalarni bajardi. Stansiya kuzga, qishki, bahorgi sabzavot-kartoshka mahsulotlarini yetishtirishning agrotexnik tadbirlarini o'rganib, ochiq yerlarda erta pishar navlarni yaratish borasida tajribalar o'tkazib keldi. Stansiya Turkiston qishloq xo'jalik tajriba stansiyasi, O'zbek meva stansiyasi deb nomlanib, uning tarkibida Samarqand seleksiya mevali (plodovaya) va O'zbek uzumchilik stansiyasi, keyinchalik Uzumchilik instituti tashkil etildi[9; b.74].

Natija.

1965-yil KPSS MQning mart plenumidan so'ng 1965-yil 26-mayda O'zbekiston SSR KP MQning XVII plenumi bo'lib o'tdi. Unda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish sohasida O'zbekiston partiya tashkilotining vazifalari belgilandi. Belgilangan vazifalar qatorida O'zbekiston SSR Qishloq xo'jalik ministrligi, ilmiy tadqiqot institutlari va tajriba stansiyalarining rahbarlari hamda boshlang'ich partiya tashkilotlariga ilmiy tadqiqot ishlarining saviyasi va samaralarini oshirishni, ilmiy xodimlarning e'tiborini O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy zonalariga muvofiq bo'lgan agrotexnika va zootexnika choralarini ishlab chiqish va takomillashtirishga, paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarining tez pishar, sifatli va serhosil yangi navlarini yetishtirishga, o'g'itlar, gerbitsidlar defoliantlardan va o'simliklarni zararkunandalar hamda kasalliklardan himoya qiluvchi vositalaridan samarali foydalanish masalalariga, xususan paxta viltiga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishga, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirishni yanada rivojlantirish, sug'orish texnikasi, va yerlarning melioratsiyasini takomillashtirish, qishloq xo'jaligidagi chorva mollarini urchitish, parvarish qilish va boqish, chorva, mol va parrandalarning eng mahsuldor zotlarini vujudga keltirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot tannarxini kamaytirish masalalariga jalb etishni topshirdi[10; b.3].

Xalq xo'jaligida fan, texnika, texnologiya sohasida erishilgan yutuq-lardan foydalanish, rivojlangan davlatlar tajribasini qo'llash masalasida ham ma'muriyatchilik bilan bog'langan jiddiy to'siqlar yuzaga keldi.

Ma'lum bo'lishicha, mamlakatda 1976-yildan 1980-yilgacha fan taraqqiyotining eng muhim va yangi yo'nalishlar bo'yicha 2000 ta kompleks dastur ishlab chiqildi. Bu dastur 6 mingdan ortiq aniq mavzularni o'z ichiga oldi[11; b.101]. Mamlakat olimlari qo'lga kiritgan ilmiy muvaffaqiyatlariga chet davlatlarda ham qiziqish katta bo'lsada, bu davrda chuqur tomir otgan ma'muriyatchilik va rasmiyatchilik bunday yutuqlarni tez va samarali hal etishga, yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etishga yo'l bermadi.

Shu sababli ilmiy asoslangan ishlab chiqarish o'rniga yillar davomida xalq xo'jaligi tarmoqlari markazdan berilgan ko'rsatmalar asosida ko'r-ko'rona rivojlantirildi. Ayni paytda, ishlab chiqarishda band bo'lgan mutaxassislarni emas, balki ishchilarning ham bilimlarini ko'tarish, ularga ma'lum ijtimoiy, moddiy, ma'naviy sharoitlar yaratish, yetarli bilim, malaka

shakllantirish va bularsiz fan, texnika sohasidagi yutuqlardan foydalanish mumkin emasligini jahon tajribasi ham ko'rsatib turar edi.

1978-yil 17-may kuni V.I.Lenin nomli Butunittifoq Qishloq xo'jalik fanlari akademiyasida "Turkistonni sug'orish ishlarini tashkil etish to'g'risidagi Dekreti imzolangan kunning 60-yilliga bag'ishlangan sessiyasi" bo'lib o'tdi. Sessiyada VASXNIL prezidenti P.Lobanov raisligida o'tgan bu yig'ilishda Dekret va O'rta Osiyo respublikalari hamda Qozog'istonda sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish haqida, sug'oriladigan dehqonchilikda fan-texnikani taraqqiy ettirish haqida paxtachilikda sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishning agrotexnika asoslari xususida va sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi [12; b.45]. "Sotsialistik" jamiyatni rivojlantirish iqtisodiy muammolarni hal etishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirish, ilmiy-texnika jamoatchiligini kuchini xalq xo'jaligiga safarbar etish maqsadida O'zbekiston SSR KP MQ ham respublika partiya organlari huzurida texnika taraqqiyotiga yo'l ochish, fan-texnika yutuqlarini joriy etishdagi to'sqinliklarni bartaraf etishda ko'maklashadigan fan-texnika taraqqiyotiga ko'maklashuvchi kengashlar tuzildi. Tabiiyki, ular partiya komitetlari bilan hamkorlikda asosan yig'ilishlar o'tkazar va qarorlar qabul qilar edi [13; b.12]. Umuman, 1976-1980 va 1981-1983-yillarda O'zbekiston SSR FA ilmiy – texnik muammolarni kengaytirish dasturiga ko'ra tabiatni muhofaza qilish, kam chiqindili hamda chiqindisiz texnologiyalar bilan Fanlar Akademiyasining Yadro fizikasi, Kibernetika, O'simliklar kimyosi, O'simliklar biologiyasi, Mikrobiologiya institutlari shug'ullandi.

1981-yil 10-dekabrda O'zbekiston SSR KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "KPSS XXVI syezdi talablarida asosida respublika kolxoz va sovxozlarida mineral o'g'itlar va pestitsidlarni ishlatishning samaradorligini oshirish haqida"gi qarori chiqdi. Unda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, VASXNILning O'rta Osiyo bo'limiga yuqoridagi qarorni bajarish bo'yicha topshiriqlar berildi. Ulardan kelib chiqib, 1982-yil 28-29-may kunlari VASXNIL Prezidiumida "Paxtachilikda o'g'itlarni ishlatish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari", "O'g'itlarni tayyorlash va ishlatishning mashina va mexanizmlarni tayyorlash mexanizmlari" mavzusidagi masalalar ko'rib chiqildi.

O'simliklarni himoya qilish maqsadlarida ham o'rinli edi. Shu maqsadda Respublikada o'simliklarni himoya qiladigan xizmatlar ochilib, karantin punktlari, o'simliklarni himoya qilish stansiyalari, signalizatsiya postlari, zararkunandalarga qarshi kurashuvchi mexanizatsiyalashgan otryadlar va laboratoriyalarda 10 mingdan ziyod entomolog, fitapotolog va boshqa mutaxassislar ishladi. Respublikada 11 ta zona agrokimyo laboratoriyasiga ega bo'lgan agrokimyo xizmati barpo etildi. Ular 2 mln. 175 ming gektar sug'oriladigan maydonda tekshiruv olib borib, tuproq agrokimyo kartogrammalarini tuzishdi, tuproq unumdorligini va qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar shunchaki qolib ketdi, masalan, o'g'it solish normalari hamma vaqt ham ilmiy talablarga javob bermadi[14; 16-b].

O'zbekiston KP MQning 1981-yil 10-dekabr 949-son "KPSS XXVI syezdi talablaridan kelib chiqib, respublika kolxoz va sovxozlarida mineral o'g'itlarni saqlash va samarali ishlatish haqida"gi qarori chiqdi. Bu qaror asosida VASXNILning O'rta Osiyo bo'limi filialining farmoyishi chiqdi va ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga topshiriqlar berildi.

1981-yil 28-29-iyun kunlari VASXNILning O'rta Osiyo bo'limi filiali Prezidiumi bo'lib o'tdi. Unda "Paxtachilikda mineral o'g'itlarni ishlatishni oshirishning ilmiy aspektlari",

“O‘g‘itlashni amalga oshirishda mashina va mexanizm apparatlarini tayyorlash” to‘g‘risidagi masalalar ko‘rib chiqildi. Bu masala bo‘yicha o‘g‘itlash ishlarida ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik ishlarini bajarishning aniq chora-tadbirlari haqida bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan, VASXNILning O‘rta Osiyo bo‘limi 1981-1985-yillarga 7,6 ming tonna mineral o‘g‘it sig‘adigan omborxonalar qurish, 1982-yilda Qashqadaryo oblastining Maymaloq sovxozida 0,5 ming tonna, Surxondaryo oblastining R.R. Shreder nomidagi NPO eksperimental xo‘jaligida 1,0 ming tonna mineral o‘g‘it sig‘adigan omborxonalar qurish belgilandi. VASXNILning O‘rta Osiyo bo‘limi qoshidagi institutlarining eksperimental xo‘jaliklarida mineral o‘g‘itlarni ishlatish va ishlab chiqishning qattiq nazorat ostidagi metodikasi ishlab chiqildi. Bu xo‘jaliklarda turli ekinlarni o‘g‘itlashning natijalari aks etgan “Maydonlar tarixi” daftari yuritildi[15; 69-b].

VASXNILning O‘rta Osiyo bo‘limi va SoyuzNIXI hamda boshqa ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda mineral o‘g‘itlarni taqsimlash-ning yagona metodikasi ishlab chiqildi. Bu metodikani ishlab chiqishdan avval tuproq tarkibi, qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi o‘rganib chiqildi. Yangi o‘zlashtiriladigan yerlardan ingichka tolali paxta yetishtirish uchun yerlar ajratildi. SoyuzNIXI va Uzselsxoximiya bilan hamkorlikda o‘g‘itlarni ishlatishning rejasi va ulardan foydalanish bo‘yicha kadrlarni o‘qitish yo‘lga qo‘ydi. Agroximiyaning turli jihatlari, paxtani o‘g‘itlashning fiziologiyasi, paxtachilikda o‘g‘itlarni ishlatishning samaradorligini kabilar o‘rganib chiqildi. O‘g‘itlarni ishlatish bo‘yicha aniq tavsiyalar taqdim etildi. Kaliyli va fosforli o‘g‘itlar va mikro-elementlarni ishlatishning agrokimyoviy tuproq kartalari ishlab chiqildi. Paxta hosildorligini oshirish maqsadida, paxtachilikni intensivlashtirish paxta – beda va boshqa xil almashlab ekishlar bilan bog‘liq bo‘ldi. SoyuzNIXI ishlab chiqqan almashlab ekishlar paxtachilik bilan shug‘ullanadigan 2,6 mln. gektar yer joriy qilindi[16; 4-b]. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1983-yil 16-sentyabrdagi 535 -son “Respublikada ilmiy-texnik ma‘lumotlarni va NOT [17; 14-b] faoliyatini yaxshilash haqida”gi qarori chiqdi. Unda NOTning ministrlarliklar, tashkilotlar, ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiy eksperimentlar o‘tkazishda, attestatsiya va ishchi o‘rinlarini ratsionalizatsiya qilish, ish haqini normallashtirish, moddiy resurslarni tejash, mehnatni tashkil etishda brigada formalarini tashkil etish, sotsialistik musobaqalarni boshqarish, xo‘jalik hisobini takomillashtirish, ishlab chiqarish va mahsulot sifatini nazorat qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabilarni nazorat qilib belgilab berildi. Biroq, NOTlarning ilmiy isbotlangan asoslari, tashkilotlarda NOTning faoliyati juda sayoz bo‘ldi. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining fan bo‘limi bergan ma‘lumotnomaga ko‘ra korxonalarda ilmiy isbotlangan ishlab chiqarish usullari texnik-iqtisodiy natija, ishlab chiqarishni oshirish, intizomni oshirish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish yo‘li qo‘l mehnatini kamaytirish kabilarda o‘z natijasini bermadi.

Hatto, O‘zbekiston SSR Yengil sanoat vazirligi, O‘zbekiston SSR Oziq-ovqat sanoati vazirligi, O‘zbekiston SSR Qurilish vazirligiga NOT umuman kiritilmadi. O‘zagropromstroyda ham NOTning faoliyati sezilmadi. Masalan, 1985-yilda Qoraqalpog‘iston ASSRda 1-raqamli Uzagropromstroyda 42 foiz ishchilar qamrab olingan bo‘lsa, NOTning ilmiy ishlanmalari 4-68 rublni tashkil etib, mehnatga ketadigan sarf kuniga 0,54 kishini tashkil etdi[18; 10-21-var].

Yuqoridagilarga ko‘ra shuni aytishimiz mumkinki Sovet hukumati O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jalikni rivojlantirishda ko‘pgina muammolarga duch keladilar va shu maqsadda ularni yechimini topish uchun ilmiy – tadqiqot instituti va tashkilotlarni tashkil etadi. Sovet hokimiyati tomonidan paxta yetishtirishni ko‘paytirish, uning sifatini oshirish va paxta

yetishtirishda yangi texnologiyalarni joriy yetishga katta qiziqish bo'lganidan dalolat beradi. Shu maqsadda O'rta Osiyoda paxtachilik masalalari bilan shug'ullanadigan barcha ilmiy tashkilotlarni birlashtirgan Butunittifoq paxtachilik ilmiy – tadqiqot instituti tashkil etildi. Butunittifoq paxtachilik ilmiy – tadqiqot institutida faoliyat olib borgan olimlar O'rta Osiyoda paxtachilik masalalari bilan shug'ullangan va natijada yangi texnologiyalarni qo'llanish bo'yicha takliflarni berganlar.

Xulosa.

Binobarin, Sovet hukumati O'rta Osiyo va ayniqsa, don, paxta kabi qishloq xo'jaligi ekinlariga boy bo'lgan O'zbekiston SSR yerlarini o'rganishdan manfaatdor edi. Shuni ta'kidlash kerakki, Sovet hukumati paxtachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi — hududlarning rivojlanishini nazorat qilish uchun butun qo'mitalar, xalq xo'jaligi majmualari va ilmiy-tadqiqot institutlari tuzildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, SIKP Markaziy Komiteti partiya rahbariyati paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti va paxta yetishtirish sohasidagi tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi boshqa birlashmalar faoliyatiga qonuniy ravishda, noo'rin aralashdi. O'zbekiston SSR Paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti va paxtachilik sohasidagi tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan boshqa birlashmalarning tadqiqotlari natijasida paxta ekinlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi, ammo, joylardagi ma'muriyat tomonidan rejani amalga oshirishga qat'iy talablar qo'yilganligi sababli ko'pgina ilmiy ishlar takliflari amalga oshmagan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Всесоюзному ордена трудового красного знамени научно – исследовательскому институту селекции и семеноводства хлопчатника им. Г.С.Зайцева 70 лет. – Ташкент. ВНИИССХ им. Г.С.Зайцева, 1992- с. 13.
2. Всесоюзному ордена трудового красного знамени научно – исследовательскому институту селекции и семеноводства хлопчатника им. Г.С.Зайцева 70 лет. – Ташкент. ВНИИССХ им. Г.С.Зайцева, 1992- с. 9.
3. Среднеазиатский ордена трудового красного знамени научно-исследовательский институт мехназации ва электрофикации сельского хозяйства (САИМЭ). – Ташкент. Узбекистан, 1972. – с. 3.
4. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 76.
5. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 77.
6. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 78.
7. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 78.
8. 1911-1991. Среднеазиатский ордена трудового красного знамени научно-исследовательский институт защиты растений. – Ташкент. Мехнат, 1991. – с.8.
9. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 74.
10. КПСС МҚ март (1965 йил) пленуми қарорлари асосида республика қишлоқ хўжалигини янада ривожлантириш соҳасида Ўзбекистон партия ташкилотининг вазифалари // Совет Ўзбекистони 1965 йил 27 май. С.3
11. На пороге кризиса: нарастание застойных явлений в партии и обществе. – М.: Политическая литература, 1990. - с. 101.

12. Доҳий чизиб берган план асосида // Совет Ўзбекистони 1978 йил 18 май. С.45.
13. Муҳим ва барқарор йўналиш // Совет Ўзбекистони. 1978 йил 11 май. С. 12.
14. Агросаноат комплекси янгиланиш йўлида. – Тошкент. Маҳнат, 1989. – 19 б.
15. Ўз МА Р- 837, рўйхат – 41, йиғма жилд – 6153, - 69 varaq.
16. СССР Озиқ – овқат программаси - пахтачилик зонаси резервлари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1983. -№1, - 4 бет.
17. Меҳнатни илмий ташкил этиш - Научная организация труда. 14-бет
18. Ўз МА Р- 2848, рўйхат 1, йиғма жилд – 10,21 - varaq.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).